ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI



№7
2025

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 418 sahifa, 1-iyul, 2025-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Umarova H. O'. –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Umarova H. O‘. –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
**Karimova E’zoza Gapirzhanovna** – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg‘izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari ........ 16
Doniyorov Salim Musurmonovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish ........ 23
Nazarov Odil Omanqulovich

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni ........ 27
Abirova Umida Nazarovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati ........ 30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li

Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari ........ 34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati ........ 38
Salimova Dilmira Farxodovna

Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar ........ 41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich

Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati ........ 44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich

Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar ........ 48
E. Po'latova

Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ... 51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna

O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar ........ 55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi ........ 60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons ........ 63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi

Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish ........ 67
Nomozova Dilobar Suyun qizi

Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar ........ 72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi

3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories ........ 75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li

Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature ........ 80
Ruzieva Maftuna

Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari ........ 85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna

Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) ........ 88
Sharipova Hakima Shavkatovna

Metacognition and Self-Regulated Learning ........ 92
Turayeva Nazira Ibragimovna

Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода ........ 95
Меденцева Наталья Петровна

Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari ........ 100
Jonibekov Jasur Jonibekovich

O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi ........ 105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi ........ 108
Bakayev Najmiddin
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida ........ 112
Egamova Madina Qobil qizi
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari ........ 116
Egamova Shukriya Amanovna
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari ........ 119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish ........ 124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ........ 128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari ........ 131
Ikromova Munisa Sheraliyevna
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari ........ 134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar ........ 138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ........ 141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi ........ 145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari ........ 148
Mamadiyorov Jamol
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari ........ 152
Sharipova Firuza Mehriddinovna
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli ........ 155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida ........ 159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari ........ 162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi ........ 166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari ........ 170
Yodgorova Gulrux Farhodovna
Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования ........ 174
Юлдашев Эргаш Сабирович
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati ........ 177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida ........ 180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar ........ 185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes ........ 189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oʻzbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari ....192
Ergasheva Muhayyoxon Gʻanijonovna

Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi....196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi

Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik....201
Adilova Zulfiya Djavdatovna

Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining oʻrni ....204
Abdukaxorova Oʻgʻiloy Isroiljon qizi

The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach ....207
Abdukhalilova Feruzakhon Ulugbek kizi

Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi boʻlgan bolalar soʻzlashuv nutqini shakllantirishda oʻyin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati....210
Abdullayeva Ugiloy Djurayevna

Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti ....214
Aripova Sayida Abdulaxatovna

Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi ....217
Rasuljon Atamuratov

Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi....221
Azizova Shodiya Utkur qizi

Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari ....224
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna

Oʻquvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash....228
Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf oʻgʻli

Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar ....232
Ochilova Sarvinoz Salim qizi

Xalq ogʻzaki ijodi vositasida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini oʻquvchilarning oʻqish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari ....236
Oxunova Nozimaxon Mirzagʻulom qizi

Loyiha asosidagi oʻqitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari....239
Risvayeva Charos Zaydilla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini oʻyinlar vositasida oʻrgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi ....242
Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon

Boʻlajak oʻqituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli ....245
Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi

Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning oʻrni ....248
Umirova Guldona Jamoliddin qizi

Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari ....251
Ungalov Akmal Navruzovich

Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi ....254
Xabirova Zulfiya Anvarbekovna

Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining oʻrni va ahamiyati ....257
Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon oʻgʻli

Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati....260
Yuldasheva Mastura Islamovna

Пословицы и поговорки как отражение картины мира ....263
Алламбергенова Шахноза Садатдиновна

Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning oʻrni ....268
Abdumannopov Muhammadsohib Muhammadyusuf oʻgʻli

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantrishning oʻziga xos xususiyatlar....272
Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna

Zamonaviy didaktik yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarning analitik va ijodiy koʻnikmalarini rivojlantirish....277
Moʻminova Gulhayo Turgʻunboy qizi

Kompetensiyaviy yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari....280
Oʻrinova Nilufar Muhammadovna

Aholi oʻrtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish metodikasi....286
Raximov Xasanboy Kamoliddin oʻgʻli

Buyuk ipak yoʻli – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida....290
Tugalova Madina Erkin qizi

Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya....293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna

Rus tilida oʻqish koʻnikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari....297
Xanova Dilrabo

Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies....303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna

Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini oʻqitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli....306
Ametova Guljamilya Elbrusovna

Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish....310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich

Aksiologik yondashuv asosida oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etishning til oʻrganish jarayonidagi ahamiyati....314
Choriyeva Feruza Amrullayevna

Ibrayim Yusupovning "Saksovul" she'rini oʻqitish metodikasi....317
Darmenov Allayar Abdilxaq uli

Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi

Oiladagi zoʻravonlik: sabablari, oqibatlari va psixologik yondashuvlar....324
Joʻrayeva Kaniza Akbarali qizi

Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari....329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi

Nodavlat ta'lim tashkilotlari oʻquvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish....334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor oʻgʻli

Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar....339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi

Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini....346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi

OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari....350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi

Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining oʻrni....356
Abdullayev Roʻzimuxammad Akramjon oʻgʻli

Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning oʻqitishning lingvodidaktik asoslari....361
Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich

Boʻlajak oʻqituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash....365
Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon oʻgʻli

Maktab ta'limida koʻpaytirishning qulay usullari....371
Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi

Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri....375
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning oʻrni....378
Isoqov Nuriddin Halim oʻgʻli

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini integrativ oʻqitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish....382
Joʻrayeva Nargiza Jamolidinovna

Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности....386
Марасулова Доно Нигматуллаевна

Til o‘rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati ........ 389
Ungarbayeva Ayman Davletbayevna

Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma’rifatparvar yo‘lboshchisi ........ 393
Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi

Dars jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish ........ 396
Yulchiyeva Shoxsanam

Особенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе ........ 399
Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович

Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения........ 403
Р. К. Ауезова

Воздействие медиа в контексте социального формирования личности........ 407
Хайдарова Гулинур Нурбек кизи

Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов ........ 411
Чинкулова Гулмехра Бахроновна

# NEMIS TILIDA DERIVATSION LEKSIK BIRLIKLARNING O'QITISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur maqola derivativ ifodalar yordamida nemis tilini o'rgatish masalasiga bag'ishlangan. Unda nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda o'zaro derivativ munosabatda bo'lgan lug'aviy birliklar o'zbek va ingliz tillaridagi muqobillari asosida ongli qiyoslash metodi asosida ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z, so'z birikmasi, lug'aviy birlik, so'z boyligi, leksik derivatsiya, semantik ma'nodoshlik, mantiqiy tafakkur, ongli qiyoslash metodi.

**Abstract:** This article is dedicated to the problem of teaching the German language using derivational units. It examines certain variations of word and phrase derivations in the process of learning German as a second foreign language, based on the method of conscious comparison with their English and Uzbek equivalents.

**Key words:** word, word combination, lexical unit, vocabulary, word derivation, semantic synonyms, logical thinking, method of conscious comparison.

**Аннотация:** Статья посвящена проблеме обучения немецкому языку с использованием деривационных единиц. В ней рассматриваются различные деривационные вариации слов и словосочетаний при изучении немецкого языка как второго иностранного, с применением метода сознательного сопоставления с узбекскими и английскими эквивалентами.

**Ключевые слова:** слово, словосочетание, лексическая единица, словарный запас, лексическая деривация, семантические синонимы, логическое мышление, метод сознательного сопоставления.

## KIRISH

Ma'lumki, har qanday tilni o'rganishda tilning ichki qonuniyatlarini bilish va bu qonuniyatlar orqali o'rganilayotgan til doirasidagi nutqiy ko'nikma va malakalarni to'g'ri shakllantirish masalasi muhim o'rin tutadi. Ta'limning turli bosqichlarida xorijiy tillarni o'rganishda so'zlararo va birikmalararo yuzaga keladigan sintagmatik va paradigmatik munosabatlarga alohida e'tibor qaratish, so'z birikmalaridagi so'zlararo uzviy bog'lanishlarni to'g'ri mushohada qila olish va o'rganilayotgan til orqali nutqiy muloqotga kirishish jarayonida ulardan samarali foydalana bilish talab etiladi.

Chet tillarni o'qitish va o'rganishda – xoh u o'rta maktabda bo'lsin, xoh oliy o'quv yurtida – turli xil o'qitish metodlaridan samarali foydalanish talab etiladi. Shu bois xorijiy tillarni o'qitishda o'qitish maqsadidan kelib chiqqan holda jarayonga yondashish, chet tilini o'qitishda vaziyatga qarab to'g'ri metodni tanlay bilish zarur hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biz chet tillar oliygohlarida ixtisoslik fani yuzasidan o'rganiladigan grammatik materiallarni tahlil qilgan holda shunga amin bo'ldikki, O'zbekistondagi xorijiy tillarga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida chet tillarning nazariy aspektlari, shu jumladan, o'rganilayotgan tilning nazariy grammatikasi, leksikologiyasi, mamlakatshunoslikka oid materiallari ma'lum ma'noda o'rganilayotgan bo'lsa-da, morfologiyaning tarkibiy qismi bo'lgan morfemikaga alohida e'tibor qaratilmayapti. Bunday oliy o'quv yurtlarida so'zning morfem shakli bo'yicha "Leksikologiya" fani orqali tegishli ma'lumotlar berilishi bilan chegaralanib qolinmoqda. Shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, derivatsiya tushunchasi chet tili o'qitish metodikasi sohasiga hali to'liq kirib bormagan.

Toshkentda A.A. Isakovaning "Методика обучения деривации студентов-филологов национальных групп в курсе "Современный русский литературный язык" nomli nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan (1984). Shuningdek, 2011-yilda Germaniyada Karina Schneider-Wiejowskining "Produktivität in der deutschen Derivationsmorphologie" nomli doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingan. O'zbekistonda derivatsiya sohasida N.Q. Turniyozov (2009, 2010), V.N. Musatov (2017), G. Tleumuratovlarning (2021) monografiyalari chop etilgan. M.B. Baxtiyorova va X.R. Xoliqovalarning "Изучение иностранного языка. Проблемы и перспективы" (2015) nomli maqolasida esa chet tili o'qitishda derivatsiyaning roli qayd etib o'tilgan.

Shuningdek, O. Mo'minov, A. Qo'ldoshev, O'.U. Usmonovlarning tadqiqot ishlarida ingliz tili morfemikasi borasida ma'lumotlar berib o'tilgan. Ingliz tili morfemikasi bo'yicha, ayniqsa, O. Mo'minovning "Ingliz tili leksikologiyasi" nomli darsligida (2008) yetarlicha ma'lumotlar berilgan. Biroq bu ishlarning hech birida derivatsiyani nemis tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayonida amaliy qo'llash borasida fikr va mulohazalar bildirilmagan. Chet tili sifatida nemis tilini o'rganishda so'zning morfem shakli hamda so'z yasovchi qo'shimchalarning ahamiyati yuzasidan yirik tadqiqot ishlaridan ba'zilarini, jumladan, nemis olimlari Günther Storch va Angelika Gärtnerlarning ilmiy izlanishlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekistonda derivatsion ifodalar yordamida nemis tilini o'rgatish muammosi ilmiy rahbarimiz P.J. Nazarovning ba'zi maqola va tezislarida qisman yoritilgan bo'lsa-da, bu muammo hanuzgacha to'liq yechimini topganicha yo'q.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodist olim I.V. Raxmanovning ta'kidlashicha, azal-azaldan kishilarda chet tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj juda kuchli bo'lgan. Chet tillarni o'qitish metodikasi tarixida asrlar davomida "tarbiyachi ayol – guvernantka" nomi bilan mashhur bo'lgan tabiiy metod keng qo'llanilgan. Keyinchalik esa chet tilini o'qitishda boshqa metodlardan ham foydalanila boshlangan va bu metodlar o'quv predmeti hamda o'qitish sharoitlariga qarab bir-birini to'ldirib borgan. Davr o'tishi bilan xorijiy tillarni o'rgatishda bir nechta usul va metodlardan keng foydalanilgan. Jumladan, nemis olimlari Gerhard Neuner va Hans Hunfeldlar bunday metodikalarga grammatika-tarjima metodi (GTM), bevosita metodlar (chet tillarni ona tili vositasiz o'qitish), audiolingval va audiovisual metodlar, kommunikativ didaktika, madaniyatlararo chet tili ta'limi kabi uslubiyatlarni kiritishgan.

Chet tili o'qitish metodlarining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida esa quyidagilarni ta'kidlab o'tishgan:

- ta'lim va yosh psixologiyasi borasidagi o'zgarishlar;
- ona tilini o'qitish borasidagi ta'limiy usullar;
- shaxsning individual xususiyatlarini o'rganish qobiliyatlari, guruhga xos bo'lgan qobiliyatlar;
- o'quv guruhining aniq maqsadlari;
- pedagogika va dars nazariyasi bo'yicha takliflar;
- tilshunoslik sohasidagi o'zgarishlar;
- badiiy adabiyotlardan olingan matnlar bilan ishlashdagi taassurotlar;
- tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi tasavvurlar;
- nemis tilini qo'shimcha chet tili sifatida o'rganish jarayonida orttirilgan tajribalar;
- tili o'rganilayotgan mamlakatdagi o'qitish va o'rganish borasidagi ta'limiy an'analar.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Nemis olimlarining fikriga qo'shimcha tarzda, bizningcha, xorijiy tillarni o'rganishning turli metodikalaridan samarali foydalanish, eng avvalo, tarixiy shart-sharoitlar asosida shakllanadi. Jumladan, yurtimizda o'tgan asrning birinchi yarmida chet tili o'qitishda grammatika-tarjima metodikasi keng qo'llanilgan. Zero, bu davrda sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan mamlakatimiz dunyodagi ko'plab davlatlar, xususan, kapitalistik mamlakatlardan to'liq izolyatsiya qilingan edi. Shu sababli bu davrdagi asosiy maqsad – chet tilida o'qish va yozishni o'rgatish edi.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida fan va texnika jadal rivojlandi. Bu davrga kelib, yangi texnik vositalar yordamida chet tillarga oid o'quv materiallarini ko'rish va eshitish imkoniyatining kuchayishi natijasida xorijiy tillarni o'qitishda audiolingval va audio-vizual metodlar an'anaviy grammatika-tarjima metodining o'rnini egalladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, uning xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hamda diplomatik aloqalar o'rnatishi chet tilida muloqotni shakllantirishga yo'naltirilgan kommunikativ metodikani chet tili o'qitishda yetakchi o'ringa olib chiqdi. Shu bois xorijiy tillarni o'rganishda nutqiy vaziyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratila boshlandi.

XXI asrga kelib, mustaqil respublikamiz dunyo miqyosida o'z o'rniga ega bo'ldi. Endilikda yurtimizda innovatsion texnologiyalarga, turizmni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Yurtboshimizning sa'y-harakat-

lari bilan bu borada chiqarilgan farmonlar va qarorlar ijrosiga, shuningdek, sayyohlarni mamlakatimizga ko'proq jalb etish maqsadida ularga xalqimizning azaliy qadriyatlarini, mamlakatimizning bebaho ne'matlarini namoyish etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Natijada, mamlakatimizda chet tili o'qitishda lingvomamlakatshunoslik va lingvokulturologik yondashuvdagi innovativ metodlardan oqilona foydalanish zarurati paydo bo'ldi.

Ko'rinib turibdiki, chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi davr va vaziyat talabidan kelib chiqadi. Shu nuqtai nazardan, biz talabalarga nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'rgatishda o'qitish metodikasini kognitiv tilshunoslik bilan bevosita bog'lab, ongli qiyoslash va mantiqiy tafakkur metodlaridan foydalanish katta samara beradi, deb hisoblaymiz. Zero, talabalar – mustaqil fikrga ega bo'lgan yoshlardir va har bir darsdagi mashg'ulotlar ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, ongli qiyoslash metodi orqali o'rganilayotgan materialni talabalar nafaqat o'z ona tillari, balki o'zlari o'zlashtirayotgan birinchi xorijiy til bilan ham qiyoslab o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Angelika Gärtner o'zining "Wortbildung. Problemfelder im DaF-Unterricht" nomli maqolasida nemis tilida qo'shma so'zlar, xususan, ot+ot, fe'l o'zagi+ot, sifat+sifat, predlog+fe'l kabi qo'shma so'zlar ko'p uchrashiga alohida urg'u beradi: Sprachkompetenz, Rufnummer, Nullmenge, Wir-Gefühl, weltbekannt, methodenorientiert, wissenschaftsnah, linksliberal, deutsch-französisch, aufstellen, weiterarbeiten, schlussfolgern, anhand, infolge… Olimaning fikriga ko'ra, bunday qo'shma so'zlar determinativ va kopulativ tarzda so'zlarning birikishi orqali nisbatan ko'proq hosil qilinadi. O'z navbatida, nemis tilidagi qo'shma so'zlarga ham so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi orqali mavjud qo'shma so'zlardan yangi ma'noli so'zlar yaratish imkoniyati mavjud bo'lib, bu imkoniyat tabiiyki, so'z boyligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Masalan, "Hochschullehre" (oliy o'quv yurti ta'limoti) qo'shma so'zining o'zi uch o'zakdan tarkib topgan: hoch + Schule + lehr (-en). Shu so'zga shaxs oti yasovchi qo'shimcha "-er" ni qo'shish orqali yangi hosila – ya'ni, "Hochschullehrer" (oliy o'quv yurtida dars beruvchi o'qituvchi) hosil qilinadi. Demak, bu qo'shma so'zning semantik ma'nosini o'zgartirishda shaxs nomi yasovchi "-er" derivatining o'z ulushi bor ekan.

Yoki die blaue Auge (ko'k ko'z) so'z birikmasiga "-ig" sifat yasovchi qo'shimchani qo'shish orqali blauäugig (ko'k ko'zli) so'zi hosil qilinadi. Bu yangi ma'noli qo'shma sifatning yuzaga kelishi orqali so'z boyligimiz yana bittaga ortadi.

Talabalarning nemis tilidagi so'z boyligini oshirishga tarixiylik tamoyili asosida ham yondashish mumkin. Bu o'rinda, tarixiy sharoit tufayli ma'lum bir vaqt mobaynida ayrim nemis tilidagi so'z yasovchi qo'shimchalar o'zakka qo'shilib ketganligi natijasida, bu tilda o'zak–negiz munosabatida so'z yasalish hodisasi ham uchrab turishini talabalar ongiga singdirish lozim deb hisoblaymiz.

Masalan, nemis tilidagi "Zuhause" (uy, makon) so'zi hozirda bir o'zakdan tashkil topgan. Bu so'z etimologik jihatdan o'rganilganda, "zu" predlogi va "-e" negiz yasovchi qo'shimchaning o'zakka qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan. Bu o'rinda shuni ham qayd etib o'tishimiz lozimki, nemis tilidagi ayrim suffikslar ham aslida alohida lug'aviy ma'nolarga ega bo'lgan leksemalardan yuzaga kelgan yarim old qo'shimchalar hisoblanadi.

Jumladan, bunday yarim old qo'shimchalarga –art (die Art – tur), –sorte (die Sorte – tur, sort), –werk (das Werk – asar, ish), –wesen (das Wesen – mohiyat) kabilarni kiritishimiz mumkin. Shuningdek, nemis tilini o'rgatishda ko'pchilik bir o'zakli nemischa so'zlar aslida tarixan ikki o'zakning o'zaro birikishidan yuzaga kelganligini yoki konversiya usulida turli so'z turkumlariga xos yangi ma'noli so'zlar hosil qilish imkoniyatlarini ham qayd etib o'tish joizdir. Masalan: qo'shma so'zlardan bir o'zakli so'zlar hosil bo'lishi: Sonntag (Sonne + Tag), allein (alle + ein), wieder (wie + der)… Bir so'z turkumidan boshqa so'z turkumiga o'tish: grün – yashil (sifat), das Grün – yashil rang, ko'kat (ot); lachen – kulmoq (fe'l), das Lachen – kulgu (ot); der Dank – minnatdorchilik (ot), dank – sharofati bilan, tufayli (predlog) va boshqalar.

Bu o'rinda old qo'shimchalarning so'zga qo'shilishi natijasida nemis tilidagi so'zning ma'nosi qisman yoki tubdan o'zgarishini ham talabalarga tushuntirib o'tish lozim deb hisoblaymiz. Ya'ni, nemis tilidagi ajraluvchi old qo'shimchalar aksariyat hollarda so'z ma'nosiga qisman o'zgartirish kiritishi, ajralmaydigan old qo'shimchalar esa so'z ma'nosining to'lig'icha o'zgarishiga olib kelishini talabalarga tushuntirib o'tilishi lozim. Masalan:

- kommen – kelmoq, ankommen – yetib kelmoq, einkommen – foyda olmoq, abkommen – kelishib olmoq;
- fahren – bormoq, abfahren – jo'nab ketmoq; suchen – izlamoq, qidirmoq; besuchen – mehmonga bormoq, qatnashmoq;
- versuchen – urinib ko'rmoq.

Shuningdek, o'qituvchi tomonidan talabalarga nemis tilidagi ajralmaydigan old qo'shimchalardan „miß-", „ver-" kabilar yordamida so'zning zid ma'nosi ham hosil qilinishi quyidagi misollar yordamida ko'rsatib o'tilishi shart:

- mieten – ijaraga olmoq, vermieten – ijaraga bermoq;
- gelingen – muvaffaqiyatli chiqmoq, misslingen – muvaffaq bo'lmaslik.

Nemis tili affikslarini oʻrgatishda yana shunga eʼtibor qaratish kerakki, agar prefikslar oʻzi bogʻlangan feʼl bilan oʻz maʼnosida qoʻllansa, ular feʼldan ajralib, gap oxirida keladi; agar prefikslar koʻchma maʼno ifodalasa, ular feʼl oʻzagidan ajralmaydi. Oʻz navbatida, nemis tilida suffikslar orqali soʻz yasalishida hamisha soʻzning maʼnosi oʻzgarib borishini tegishli misollar yordamida qayd etib oʻtish lozim. Misol uchun:

- Freund – doʻst, Freundschaft – doʻstlik, freundschaftlich – doʻstona;
- rein – toza, reinlich, Reinheit, Reinlichkeit – tozalik.

Ingliz tilida boʻlgani kabi, nemis tilida ham “predlog + ot” shaklida derivatsiyaga uchragan turgʻun soʻz birikmalari qoʻllaniladi. Bunday koʻrinishdagi iboralarni ingliz va nemis tillarida qiyosiy jihatdan talabalarga oʻrgatish maqsadga muvofiqdir: ingliz tilida:

- by day (kunduz kuni), at night (tunda), by car (by bus, by train, by ship, by boat, by plane…) – mashinada, avtobusda, poyezdda, kemada, qayiqda, samolyotda;
- on foot – piyoda; at home – uyda.

Nemis tilidagi bunday derivatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- Nach Jahr und Tag – belgilangan muddatda,
- In Bausch und Bogen – toʻligʻicha, toʻliq holda,
- Von Mal zu Mal – vaqti-vaqti bilan,
- Nach Hause – uyga, Zu Hause – uyda,
- Schritt für Schritt – qadamma-qadam.

Nemis va ingliz tillaridagi “predlog va ot” koʻrinishida hosil boʻlgan iboralarning oʻxshashligidan va german tillarida bunday iboralarning aksariyati predlogning otga artiklsiz toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻlanishidan hosil boʻlganligidan kelib chiqqan holda, quyidagi fikr-mulohazalarni talabalar ongiga singdirish mumkin: agar predlog va otning tegishli kelishik shakli hech qanday grammatik aloqasiz, toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻlansa, bunda frazeologik birikma, agar biror-bir grammatik vosita yordamida bogʻlansa, soʻz birikmasi yuzaga keladi. Masalan,

- ingliz tilida: to bed (yotishga) – frazeologik birikma, to the bed (karavotga) – soʻz birikmasi;
- nemis tilida: nach Hause (uyga) – frazeologik birikma, nach dem Haus (uydan keyin) – soʻz birikmasi.

Bizning fikrimizcha, oʻzbek talabalariga nemis tilidagi soʻz yasovchi qoʻshimchalarning qaysilari unumli, qaysilari unumsiz ekanligi haqida maʼlumot berilishi ham maqsadga muvofiqdir. Olimlar nemis tilidagi mahsuldor affikslar qatoriga quyidagilarni kiritishadi: ent-, be-, an-, ab-, aus-, -ig, -lich, -mäßig, -heit, -sam, -schaft, -er va boshqalar.

Torsten Sieverning fikriga koʻra, nemis tilida 100 ga yaqin mustaqil boʻlmagan morfemalar mavjud boʻlib, shulardan faqat 30 ga yaqini mahsuldor hisoblanar ekan. Olim bu mahsuldor morfemalarga quyidagilarni kiritadi:

- ot soʻz turkumidagi oʻzakka qoʻshiluvchi prefikslar va suffikslar: un-, ur-, ex-, -e, -ung, -nis, -heit, -keit, -ei, -er, -ling, -sal, -haft, -isch, -lich, -ig;
- sifatga qoʻshiluvchi suffikslar: -en, -ern, -isch, -lich, -sam, -bar, -haft, -sal;
- feʻlga qoʻshiluvchi prefikslar va suffikslar: be-, er-, ent-, ver-, zer-, -eln, -ern, -igen, -sen, -ieren;
- ravishga qoʻshiluvchi suffikslar: -s, -lings [mediensprache.net.de/basix/morphologie/wortbildung/derivation/].

Shunga ham eʼtibor qaratish kerakki, oʻzak-negiz munosabati hamda qoʻshimchalarsiz, bir soʻz turkumidan boshqa bir turkumga oʻtish orqali soʻz yasalishi, nemis tili flektiv tillar qatoriga kirsa ham, nisbatan unumsiz usullardan hisoblanadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, talabalar soʻz boyligini oshirish jarayonida derivatsion yondashuvning nechogʻlik muhimligini koʻrishimiz mumkin. Bu oʻrinda tadqiqot ishimizning obʼyektidan kelib chiqqan holda, asosiy tili ingliz tili boʻlgan filolog talabalarga nemis tilini oʻrgatishda soʻzning derivatsion tarmoqlanishi hodisasini ongli qiyoslash metodi orqali talabalarga tushuntirish yaxshi samara beradi, degan xulosaga keldik.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Neuner G., Hunfeld H. Chet tili oʻqitish metodlari (tarjimon: Saidumar Saidaliyev). – Namangan, 2005. – 240 b.
2. Жалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 368 б.
3. Лепинг Е.И. и др. Большой немецко-русский словарь. Том II. – Москва: Русский язык, 1980. – 656 с.
4. Рахманов И.В. Основные направления в методике преподавания иностранных языков в XIX–XX вв. – Москва: Педагогика, 1972. – 220 с.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.